

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03. RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**IBADULLAYEV DONIYOR KUVANDIKOVICH**

**Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda VR va AR texnologiyasidan foydalanishni  
takomillashtirish metodikasi**

**13.00.06-Raqamli ta'lim nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq-2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Ibadullayev Doniyor Kuvandikovich**

**Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda VR va AR texnologiyasidan foydalanishni  
takomillashtirish metodikasi..... 5**

**Ибадуллаев Дониёр Кувандикович**

**Методика совершенствования использования технологий VR и AR в  
подготовке будущих учителей ..... 21**

**Ibadullaev Doniyor Kuvandikovich**

**Methodology for improving the use of VR and AR technologies in the training of  
future teachers ..... 41**

**List of publications..... 45**

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03. RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**IBADULLAYEV DONIYOR KUVANDIKOVICH**

**Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda VR va AR texnologiyasidan foydalanishni  
takomillashtirish metodikasi**

**13.00.06-Raqamli ta'lim nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
Avtoreferati**

**Chirchiq-2026**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Ped10526 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (cspu.uz/uz ilmiy-kengash) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xurramov Anvar Jumanazarovich**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

**Rasmiy opponenlar:**

**Axmedjanov Dilmurod G'ulomovich**  
texnika fanlari doktori (DSc), professor

**Abdullayev Alibek Qodiraliyevich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent


**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03. raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "09" 06 soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111720, Chirchiq shahar, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712- 45-41.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "26" 05 da tarqatildi.  
(2026-yil "26" 05 dagi 20 - raqamli reyestr bayonnomasi).

  
**F.U.Qodirova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
pedagogika fanlari doktori, professor (DSc)

**I.D.Qodirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

**D.O.Ximmataliyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori,  
professor (DSc)

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim muassasalarida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashishi sababli uzluksiz ta'lim amaliyotiga innovatsion yondashuvlar, ilg'or pedagogik hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni keng tatbiq etilmoqda. Ushbu jarayonlar YUNESKO tomonidan qabul qilingan Incheon deklaratsiyasi<sup>1</sup>da belgilangan ustuvor yo'nalishlar bilan hamohang bo'lib, unda ta'lim sifatini oshirish, raqamli ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish, masofaviy hamda aralash ta'lim tizimlarini takomillashtirish global maqsad sifatida qayd etilgan. Ayniqsa, so'nggi yillarda virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalaridan foydalanishning ta'lim tizimidagi ahamiyati ortib bormoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalarida VR va AR texnologiyalaridan foydalanish asosida o'quv jarayonini individuallashtirish, talabalarning mustaqil ta'limini rag'batlantirish, fanlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish hamda o'qituvchilar tayyorgarligi samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayonda raqamli muhit yaratish, virtual laboratoriyalarni joriy etish, murakkab mavzularni vizual tushuntirish va interaktiv materiallar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, VR va AR texnologiyalari talabalarga real sharoitga yaqin muhitda tajriba orttirish imkonini berib, ularning nazariy bilimlari bilan birga amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. O'qituvchilar esa yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llab, darslarni samaraliroq tashkil etish va kreativ usullardan foydalanish imkoniga ega bo'lmoqda. Shu bois, VR va AR texnologiyalarini takomillashtirish ta'lim jarayonida muhim va istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham raqamli texnologiyalarni ta'limga keng tatbiq etish, zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish orqali bilim berish sifatini yanada oshirish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Ma'lumotlarni qayta ishlash hamda sun'iy intellektga asoslangan loyihalarni ishga tushirish uchun texnik infratuzilma yaratish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida mazkur yo'nalishdagi ustuvor loyihalarni amalga oshirish, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha aholining bilim va ko'nikmalarini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish"-vazifalari belgilab berilgan. Shuningdek, VR va AR kabi zamon talab texnologiyalari orqali ta'lim sifatini oshirish, talaba-yoshlarda o'qishga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash hamda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonlarda interaktiv platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari va sun'iy intellektga asoslangan vositalardan foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Natijada ta'lim jarayoni yanada samarali, qulay va qiziqarli tus olib, o'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ 289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari yanada rivojlantirish chora-

<sup>1</sup> Incheon Declaration and SDG4 – Education 2030 Framework for Action <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000245656>

tadbirlari to'g'risida" hamda 2025-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorlari ijrosini ta'minlashda muayyam darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlalakimiz yoshlarida virtual reallik texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmasini shakllantirish zarurati, ta'lim jarayonini 3D asosida tashkil qilish va rivojlantirish, ta'lim tizimining virtuallashuvini ta'minlashning tashkiliy-pedagogik, metodik aspektlari F.Zakirova, A.Sanaqulov, A.T.Ubbiyev, A.Xalikov, E.A.Mo'minov, F.M.Nuraliyev, F.Raximov, J.A.Hamidov, M.Fayzullayeva, N.D.Mirzahmedova, R.A.Xoldarboyev, Sh.K.Shayakubov va boshqalarning, axborotlashgan jamiyatda virtual ta'limning o'mi hamda ulardan foydalanishning tarbiyaviy jihatlari E.A.Mo'minov, F.Raximov va boshqalarning ilmiy izanishlarida tadbiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida zamonaviy ta'limda virtual (VR) va to'ldirilgan (AR) reallik texnologiyalaridan foydalanish, o'quv jarayonida talabalarning mustaqil o'rganish faoliyatini raqamli muhitda tashkil etish masalalari A.B.Cheboksarov, A.S.Konushin, A.V.Mejenin, B.Yu.Botvineva, G.P.Katis, M.B.Chetvergova, M.D.Napso, V.O.Afanasyev, V.R.Roganov, Ye.Pajorova, Ye.V.Polovinko va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida tahlil etilgan va amaliyotga tavsiyalar joriy etilgan.

Xorijiy mamlakat A.A.Sinakos, A.Papadopulu, A.R.Dangel, M.Georgieva, J.M.Zurada, J.Richter, M.J.Kruger, M.L.Burge, M.L.Myuller, M.Plats, M.R.Gonsales, N.Virman, R.Kumar, S.Agne, S.Ahmed, S.Saifullah, S.Bera, S.Mistakidis, S.Nazir, M.Sairio, T.Ahram, T.Stanko, V.K.Gunjan, W.Karvovski, S.Wong va boshqalar o'z ilmiy izlanishlarida axborotlashtirish jarayonlari, modellashtirish yondashuvlari hamda ishlab chiqarish va ta'lim tizimlarini raqamlashtirish bilan bog'liq dolzarb muammolarni chuqur tahlil qilib, ularning nazariy va amaliy yechimlarini asoslab berganlar.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlar rejasining 561624-EPP. "Raqamli ta'lim muhitida malakali yetuk kadrlarini tayyorlash" (2023-2026-yillar) mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda VR va AR texnologiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida VR, AR texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini ochib berish;

bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda VR, AR texnologiyalaridan integrativ foydalanish modelini takomillashtirish;

VR va AR texnologiyalarini samarali qo'llashning pedagogik mexanizmlarini

takomillashtirish;

VR va AR texnologiyalari asosida talabalarda pedagogik mahoratni shakllantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini VR va AR texnologiyalari asosida takomillashtirish jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Guliston va Qarshi davlat universitetlarining 375 nafar talabalari jalb qilindi.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda VR va AR texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mazmuni, shakllari, metodlari va raqamli vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari** sifatida tadqiqot ishiga oid adabiyotlarni o'rganish, o'qitish jarayonini kuzatish, qiyosiy tahlil etish, turli so'rovnomalar, anketa va suhbatlar orqali nazariy hamda amaliy bilimlarini o'rganish, tajriba-sinov ma'lumotlarini qayta ishlashda matematik-statistika usullari, natijalarni grafik tasvirlash usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida VR, AR texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari o'quv jarayonida kompleks immersiyani jadallashtiruvchi diagnostika bazasini individual ta'limning muvaffaqiyat va bo'shliqlar profilaktikasiga yo'naltirilgan funksiyalarni ustuvorligida personal modifikatsiyalash asosida ochib berilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda raqamli texnologiyalardan integrativ foydalanish modeli VR, AR va AI integratsiyasida pedagogik faoliyatga kompetentsiyaviy tayyorlashning 5 bosqichli dars ssenariylarini refleksiv monitoring ustuvorligida joriy etish asosida takomillashtirilgan;

VR va AR texnologiyalarini integrativ qo'llashning pedagogik mexanizmlari talabalarning mustaqil ta'limi va pedagogik amaliyotda fasilitatsion ta'sirini kuchaytiruvchi simulyatsion metodik algoritmnini talaba-talabaga ustoz munosabatida modernizatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

VR va AR texnologiyalari asosida talabalarda pedagogik mahoratni shakllantirishning dasturiy ta'minoti pedagogik jarayonni real idrok etish va emotsional his qilishga qaratilgan PVL (pedagogik virtual laboratoriya <http://vr.matin.uz>)ni akademik darajalanishiga moslashuvchan dizaynda unikallashtirish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

o'quv jarayonida zarur pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadida VR/AR va AI texnologiyalaridan foydalanishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar, o'quv-uslubiy ko'rsatmalar va diagnostik baholash mezonlari ishlab chiqildi hamda ta'lim jarayoniga joriy etildi.

talabalarning pedagogik mahoratini oshirish, kasbiy tajribasini oshirishga qaratilgan "PVL" desktop dasturi ishlab chiqildi va joriy etildi;

bo'lajak o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga mo'ljallangan tafsiyalarni o'z ichiga olgan "Modern programming languages" nomli o'quv qo'llanma nashr qilindi;

VR, AR texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini

kengaytiruvchi hamda individual ta'lim sharoitida talabalarning kompleks immersiyani jadallashtiruvchi diagnostika bazasi takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishida qo'llanilgan yondashuv, metodologik asoslanganligi, respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy-metodik anjuman materiallari to'plami, virtual reallik vositasida o'qitish usullari va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sifatida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirishda VR va AR texnologiyalarini qo'llashning ilmiy asoslari tahlil etilgani, raqamli ta'lim paradigmalari asosida metodik yondashuvning integrativ-imitatsion ta'sir muhitida refleksiv monitoring ustuvorligida takomillashtirilganligi, virtual reallikda pedagogik jarayonni idrok etish hamda emotsional his etish orqali vaziyatni analiz-sintez qilishga o'rgatuvchi o'quv jarayonining raqamli strategiyalari ilmiy-amaliy asoslab berilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda VR va AR texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish metodikasiga qaratilgan metodik tavsiyalar, raqamli resurslar, o'quv uslubiy qo'llanmalar va dasturiy vositalarning ishlab chiqilishi bilan namoyon bo'ladi. Jumladan, "PVL" virtual ssenariyashtirilgan desktop dasturi orqali pedagogik mahoratni rivojlantirish uchun shaxsiylashtirilgan raqamli muhit yaratildi, "Modern programming languages" nomli o'quv dasturi ishlab chiqildi, tajriba-sinovdan o'tkazildi, amaliyotga joriy etildi, ushbu natijalar oliy ta'lim muassasalarida "4+2" malakaviy va pedagogik amaliyotni raqamli-pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan belgilangan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda VR va AR texnologiyalari vositasida pedagogik mahoratni oshirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida VR, AR texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari o'quv jarayonida kompleks immersiyani jadallashtiruvchi diagnostika bazasini individual ta'limning muvaffaqiyatga va bo'shliqlar profilaksitasiga yo'naltirilgan funksiyalari ustuvorligida personal modifikatsiyalashga qaratilgan tavsiyalar "Modern programming languages" o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-avgustdagi 781-sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan 597828-raqamli guvohnoma). Natijada, talabalarning virtual jarayonida kasbiy rivojlanish jarayoni metodik jihatdan ta'minlanishiga erishilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda raqamli texnologiyalardan integrativ foydalanish modeli VR, AR va AI integratsiyasida pedagogik faoliyatga kompetentsiyaviy tayyorlashning 5 bosqichli dars ssenariylari asosida Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Guliston va Qarshi davlat universitetlarida o'quv va pedagogik amaliyot jarayoniga joriy etilgan (O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va

innovatsiyalar vazirligi oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2026 yil 17-apreldagi 02/01-01-265 -son ma'lumotnomasi). Natijada, ta'lim jarayonida pedagogik mahoratni oshirishga qaratilgan raqamli yondashuvlarning manzilli, maqsadli joriy etilishi hamda ommalashishiga erishilgan;

VR va AR texnologiyalarini integrativ qo'llashning pedagogik mexanizmlari talabalarning mustaqil ta'limi va pedagogik amaliyotida fasilitatsion ta'sirini kuchaytiruvchi simulyatsion metodik algoritmlarni talaba-talabaga ustoz munosabatida modernizatsiyalashga oid takliflar O'zbekiston Milliy universitetida 2021-2024-yillarda bajarilgan F-OT-2021-248-son "Funksional jadvallar asosida axborotlarni ximoyalash uchun xavf-xatarlarni aniqlash, identifikatsiya va bartaraf qilishning intelktual usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish" fundamental loyiha doirasida belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining №04/11-11452-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarda ma'lumotlarni xavfsiz va himoyalangan texnologiyalardan foydalanishlariga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida ma'ruza ko'rinishida bayon qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy va metodik ish chop etilgan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 ta xorijiy jurnallarda va 2 ta respublika jurnallarda nashr etilgan hamda 1 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomalari olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 136 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslanib, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlanib, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda raqamli texnologiyalarning didaktik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalardan, xususan virtual reallik, kengaytirilgan reallik va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning didaktik asoslari kompleks va tizimli tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ushbu texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish zamonaviy ta'lim taraqqiyotining obyektiv talabi bo'lib, u bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishi ilmiy asosda isbotlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, VR texnologiyalari o'quvchilarning fazoviy fikrlashini rivojlantirishi, bilimni chuqurroq o'zlashtirishga yordam berishi va o'quv motivatsiyasini sezilarli oshirishi ilmiy asoslangan (E.Mikropoulos, Natsis, L.Dalgarno, J.Bailenson). Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarda raqamli pedagogika, innovatsion metodik yondashuvlar va metakompetensiyalarni shakllantirishda immersiv va intellektual texnologiyalardan foydalanish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Bob doirasida VR texnologiyalarining immersiv va simulyativ imkoniyatlari bo'lajak o'qituvchilarda tajribaviy o'rganish, refleksiya va real pedagogik vaziyatlarda qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi, VR texnologiyasi insonning emotsional va psixologik holatiga kuchli ta'sir ko'rsatishini, bu esa ta'limda chuqur immersiv tajriba yaratishda muhim omil ekanligini ta'kidlagan (J.Lanier). VR texnologiyalari masofaviy ta'limda real amaliyotga yaqin sharoit yaratib, o'qituvchilar tayyorlashda samarali simulyatsion muhit hosil qilishini aniqlagan (Radianti), virtual reallik texnologiyalarining masofaviy ta'limdagi o'rni tadqiq qilib, VR platformalari o'quvchilarning motivatsiyasi va emotsional jalb etilganlik darajasini oshirishini aniqlaganlar (S.Mistakidis, N.Virmani, R.Kumar). Ularning xulosasiga ko'ra, immersiv texnologiyalar ta'lim jarayonini real hayotga yaqinlashtiradi va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, VR texnologiyalari ta'lim jarayoniga immersiya, interaktivlik va simulyativ muhit kabi yangi pedagogik imkoniyatlarni olib kirdi. Bo'lajak o'qituvchilar uchun VRning o'quv-metodik ahamiyati birinchi navbatda tajribaviy o'qitish (experiential learning) konsepsiyasiga asoslanadi. Kolbning tajribaviy ta'lim modeliga ko'ra, o'qituvchi malakasi real vaziyatlar bilan bevosita muloqotda bo'lish orqali rivojlanadi. VR esa aynan shu jarayonni xavfsiz, takrorlanadigan va nazorat qilinadigan virtual makonda amalga oshirish imkonini beradi (D.Kolb).


AR texnologiyalari esa real ta'lim muhitini boyitish, murakkab tushunchalarni vizuallashtirish hamda innovatsion dars dizaynini ishlab chiqishda samarali didaktik vosita, ARni real va virtual obyektlar integratsiyasi, real vaqt interaktivligi va 3D registratsiya orqali izohlab, ushbu texnologiyaning barcha ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik asosini yaratgan (R.Azuma). AR texnologiyalarining STEM ta'limidagi samaradorligini tahlil qilib, kengaytirilgan reallik murakkab ilmiy tushunchalarni oddiy va tushunarli shaklda yetkazishda muhim vosita ekanligini asoslaydi (X.Chen, Z.Wu, Y.Chang). Ular AR orqali o'quvchilarning fazoviy tafakkuri va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanishini ko'rsatadi. Shuningdek, Alan Turing g'oyalari asosida rivojlangan AI tizimlari va J.MacCarthy tomonidan shakllantirilgan konsepsiyalar bugungi kunda adaptiv o'qitish, individual ta'lim yo'llarini shakllantirish va o'quv jarayonini avtomatlashtirishda muhim o'rin tutadi. AI texnologiyalari ta'lim jarayonini tahlil qilish, individuallashtirish va monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirib, o'qituvchining kasbiy faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi intellektual yordamchi sifatida namoyon bo'lishi, ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayonida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi (A.Abdullayeva, Sh.Xudoyberdiyev). Demak, AI asosidagi adaptiv ta'lim tizimlari o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, bundan tashqari, ta'limni raqamlashtirish,

AI va immersiv texnologiyalarni joriy etish ta'lim sifatini oshirishning asosiy omili sifatida e'tirof etish mumkin.

VR, AR va AI texnologiyalarining o'zaro integratsiyasi ta'lim jarayonida sinergetik ta'sirni yuzaga keltirib, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik, didaktik-metodik, raqamli va shaxsiy-ijtimoiy kompetensiyalarini kompleks shakllantirish imkonini berishi ko'rsatildi. Ushbu integratsiya zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan uyg'unlashgan holda o'qituvchilar tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Immersiv ta'lim VR, AR texnologiyalarining asosiy psixologik mexanizmlarini o'rganadi. Dedening fikriga ko'ra, VR "kuchli ishtirok hissi" (presence)ni shakllantiradi, bu esa o'quvchining bilimni qabul qilish darajasini sezilarli oshiradi. U o'zining ilmiy izlanishlar natijasida -"Immersiv muhitlar talabaning o'quv jarayoniga kirib borishini kuchaytiradi, natijada chuqur o'zlashtirish yuz beradi" degan xulosaga kelgan (Ch.Dede)

Ushbu uch immersiya turi uzviy yagona tizim bo'lib, VRning ta'limdagi samaradorligini maksimal darajada oshiradi. Perseptiv immersiya idrokni faollashtirsa, kognitiv immersiya tafakkurni, emotsional immersiya esa motivatsiyani kuchaytiradi. Shu tariqa VR texnologiyasi o'quvchini vizual, intellektual va hissiy jihatdan to'liq jalb qiluvchi integrallashgan ta'lim vositasiga aylanadi.



**1-rasm. Dedening ta'limda VR texnologiyasini uch bosqichli modelining immersiv modernizatsion talqini**

Ch.Dedening ta'limda qo'llaniladigan uch bosqichli immersiv modeli (perseptiv, kognitiv va emotsional komponentlar) nazariy jihatdan tahlil qilinib, uning imkoniyatlarini kengaytirish asosida ssenariyga yo'naltirilgan immersiv ta'lim muhiti konsepsiyasi takomillashtirildi. Xususan, mavjud model tarkibiga qo'shimcha ravishda regulyativ va insentiv (rag'batlantiruvchi) komponentlarning integratsiyalashuvi orqali

pedagogik jarayonni boshqarish, motivatsiyani kuchaytirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi kengaytirilgan yondashuv ishlab chiqildi.

Taklif etilgan ushbu yondashuv asosida immersiv ta'lim muhitida pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, talabalarning faol ishtirokini ta'minlash va o'quv jarayonini adaptiv boshqarish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Shu bilan birga, tadqiqotda ta'limni individuallashtirish tamoyiliga alohida e'tibor qaratildi. Har bir talabaning bilimni o'zlashtirish sur'ati, o'rganish uslubi va kognitiv qiziqishlari o'ziga xos ekanligi inobatga olinib, immersiv texnologiyalar asosida moslashuvchan (adaptiv) o'quv muhitini tashkil etish zarurati ilmiy jihatdan asoslab berildi. Bu esa ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish hamda o'quv samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi.

AR texnologiyasi real muhitga qo'shimcha vizual, audio yoki matnli axborotlarni joylashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu texnologiya o'qituvchiga murakkab mavzularni sodda va tushunarli tarzda yetkazish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bo'lajak o'qituvchilar uchun ARning o'quv-metodik ahamiyati bir necha asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi.


AI ning eng muhim o'quv-metodik afzalliklaridan biri - bu adaptiv ta'lim tizimlarini yaratish imkoniyatidir. Adaptiv tizimlar talabaning (yoki bo'lajak o'qituvchining) bilim darajasiga, tezligiga, o'quv tarziga qarab shaxsiylashtirilgan topshiriqlarni taqdim etadi. Bu yondashuv pedagogik metodikani tubdan o'zgartirib, an'anaviy "hamma uchun bir xil" yondashuvdan voz kechishga imkon beradi.

Bu uch texnologiyaning birgalikda qo'llanishi ta'limdagi innovatsion yondashuvlarning sintezini yaratadi. Integratsiya quyidagi metodik afzalliklarni taqdim etadi: VR orqali to'liq sho'ng'ish, AR orqali real muhitni boyitish va AI orqali tahlil qilish birgalikda o'qitishni yangi darajaga ko'taradi.

Dissertatsiyaning "**Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida VR va AR texnologiyalaridan foydalanish**" deb nomlangan ikkinchi bobida virtual reallik (VR) va sun'iy intellekt (AI) texnologiyalariga asoslangan simulyatsion ta'lim muhiti, virtual sinf va virtual talabalar modeli hamda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini baholash va rivojlantirish metodikasi kompleks tarzda tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida VR va AI texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi an'anaviy pedagogik tayyorlov modelini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi ilmiy jihatdan asoslandi. VR orqali real vaziyatlarga yaqinlashtirilgan pedagogik situatsiyalarni modellashtirish metodikasi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uzviy bog'lash imkonini berishi isbotlandi. Simulyatsion o'qitish jarayonlarining bosqichma-bosqich tashkil etilishi refleksiya, tanqidiy fikrlash va tezkor pedagogik qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.


Zamonaviy ta'lim modellarining asosiy xususiyatlaridan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik virtual laboratoriya dasturi asosida o'qitishning takomillashtirilgan modeli quyidagi komponentlardan tashkil topgan:

1) maqsadli; 2) dasturiy komponent mazmuni va strukturasi; 3) jarayonli; 4) natijaviy-baholovchi (2-rasm). Quyidagi model asosida avtomatlashtirilgan baholash va AI orqali tahlil qilish imkoniyatini beruvchi PVL (Pedagogik virtual laboratoriya) dasturini ishlab chiqdik. Biz tomonimizdan yaratilgan PVL ta'lim dasturi talabalarga pedagogik mahorat, psixologik tajriba va o'z-o'zini baholash, tanqid qilish jarayonini tashkil etishga qaratilgan.



**2-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik virtual laboratoriya dasturi asosida o'qitishning takomillashtirilgan modeli**

PVL dasturi - bu Unreal Engine 5 asosida yaratilgan, virtual sinf va virtual talabalar ishtirokida bo'lajak o'qituvchilarning dars berish jarayonini modellashtirish, tahlil qilish va baholashga mo'ljallangan raqamli ta'lim muhiti hisoblanadi.



**3-rasm. Pedagogik virtual laboratoriya dasturining umumiy algoritmi**

PVL dasturining asosiy maqsadi: bo'lajak o'qituvchilarni real pedagogik faoliyatga tayyorlash, pedagogik mahoratni obyektiv va kompleks baholash, xatolardan xavfsiz muhitda tajriba orttirish, individual rivojlanish uchun AI asosida tavsiyalar berishdan iborat.

PVL dasturining birinchi va eng muhim maqsadi - bo'lajak o'qituvchilarni real pedagogik faoliyatga yaqin sharoitda tayyorlashdir. An'anaviy pedagogik amaliyotda talabalar ko'pincha qisqa muddatli maktab amaliyotida qatnashadi va cheklangan miqdordagi darslarni o'tkazish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa real pedagogik vaziyatlarning barcha turlarini boshdan kechirish uchun yetarli emas.

PVL dasturida esa virtual sinf muhitida real hayotda uchraydigan turli pedagogik vaziyatlar modellashtiriladi. Virtual talabalar turli xarakter, bilim darajasi va xulq-atvoriga ega bo'lib, bo'lajak o'qituvchini real sinf muhitiga maksimal darajada yaqinlashtiradi.

Ssenariyga asoslangan tahlil, avvalo, pedagogik vaziyatlarni modellashtirishdan boshlanadi. VR muhitida real hayotda tez-tez uchraydigan vaziyatlar - masalan, darsda intizom buzilishi, talabalar faolligining pasayishi, kutilmagan savol yoki nizoli holat - maxsus ssenariylar ko'rinishida yaratiladi. Har bir ssenariy uchun optimal pedagogik harakatlar ketma-ketligi oldindan ishlab chiqiladi. Bu ketma-ketliklar pedagogika va didaktika tamoyillariga asoslanadi.

Ssenariyga asoslangan tahlilning ishlash prinsipi “vaziyat → harakat → natija → solishtirish” ketma-ketligiga asoslanadi. Dastlab, VR muhitda vaziyat yuzaga keladi. Keyin bo‘lajak o‘qituvchi ushbu vaziyatga o‘zicha javob beradi. Ushbu javoblar sun‘iy intellekt tomonidan qayd etilib, oldindan belgilangan etalon ssenariy bilan solishtiriladi. Natijada o‘qituvchining pedagogik qarori qanchalik samarali va o‘rinli bo‘lgani aniqlanadi. Quyidagi har bir pedagogik ssenariylarning ta’riflari va izohlari keltirib o‘tilgan:


Intizomiy ssenariylar bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini shakllantirishda muhim o‘rin tutuvchi vaziyatlar turkumiga kiradi. Ushbu ssenariylar dars jarayonida tez-tez uchraydigan, lekin o‘qituvchidan puxta pedagogik yondashuvni talab qiladigan holatlarni modellashtirishga xizmat qiladi. Intizomiy ssenariylarning asosiy turlariga talabalar shovqini, darsga kechikish hamda o‘qituvchiga nisbatan e’tiborsizlik kabi vaziyatlar kiradi.

Motivatsion ssenariylar bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan vaziyatlar majmuasini tashkil etadi. Ushbu ssenariylar dars jarayonida talabalar faolligining pasayishi, zerikish holati va darsga bo‘lgan qiziqishning susayishi kabi holatlarni modellashtirishga qaratilgan.


Kognitiv ssenariylar bo‘lajak o‘qituvchilarning bilimini tushuntirish, murakkab fikrlash jarayonlarini boshqarish va o‘qituvchilarning tushunmovchilik holatlariga to‘g‘ri munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ssenariylar asosan murakkab savollar berilishi, noto‘g‘ri javoblar yuzaga kelishi hamda mavzuni tushunmaslik holatlarini modellashtirishga qaratiladi.

Nizoli ssenariylar bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular ta’lim jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatli holatlarni modellashtirishga qaratilgan. Ushbu ssenariylar asosan talaba-talaba nizosi va talaba–o‘qituvchi ziddiyati kabi vaziyatlarni o‘z ichiga oladi.

Vaqt bosimi ssenariylari bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular dars jarayonida vaqt yetishmasligi bilan bog‘liq real vaziyatlarni modellashtirishga qaratilgan. Ushbu ssenariylar asosan dars oxiriga kelib mavzuning to‘liq tugallanmasligi, rejalashtirilmagan savollar yoki kutilmagan topshiriqlar paydo bo‘lishi kabi holatlarni o‘z ichiga oladi. Bunday vaziyatlar o‘qituvchidan tezkor fikrlash, ustuvorliklarni belgilash va pedagogik jihatdan to‘g‘ri qaror qabul qilishni talab qiladi.



4-rasm. PVL dasturini yaratish jarayoni



5-rasm. PVL dasturining VR ko‘zoynak (glasses)da ko‘rinishi

Dissertatsiyaning “Tajriba-sinov ishlari va uning samaradorligini aniqlash” deb nomlangan uchinchi bobida dissertatsiyada ilgari surilgan pedagogik model va

metodlarning amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda VR va AR texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish metodikasiga qaratilgan uch bosqichli pedagogik tajriba-sinov ishlari (2023-2026 yillar) tavsiflangan. Bunda oliy ta'lim muassasalari talabalarining 4+2 malakaviy amaliyotda dars berish mahorati, pedagogik amaliyot mazmuni hamda bo'lajak o'qituvchilarning real dars jarayoniga tayyorgarlik darajasi o'rganildi; tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirildi.

Tajriba-sinov ishlari Guliston davlat universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti va Qarshi davlat universitetlarida o'tkazildi. Tajriba-sinov nazorat guruhlarida an'anaviy usulda, tajriba guruhlarida esa, biz tomondan taklif etilayotgan uslubiy yondashuv asosida olib borildi.

Mazkur tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini baholash va tajriba-sinov ishlarining samaradorligini aniqlash uchun o'rtacha arifmetik qiymatlar asosidagi pedagogik-statistik tahlil usuli tanlandi. Ushbu yondashuv pedagogik tadqiqotlar uchun tavsiya etilgan, natijalarni sodda, tushunarli va ishonchli tarzda talqin qilish imkonini beruvchi usul hisoblanadi. PVL (Pedagogik Virtual Laboratoriya) dasturi asosida tashkil etilgan VR va AI muhitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyati ko'p mezonli baholash asosida tahlil qilindi.

Olingan ballar asosida boshlang'ich va yakuniy natijalarning o'rtacha qiymatlari hisoblandi va o'zaro taqqoslandi.

Pedagogik mahorat quyidagi 5 ta asosiy mezon asosida baholandi:

1. Intizomiy vaziyatlarni boshqarish
2. Motivatsion faoliyatni tashkil etish
3. Kognitiv (bilim va tushuntirish sifati) kompetensiy
4. Nizoli vaziyatlarni hal etish
5. Vaqt bosimi sharoitida qaror qabul qilish

Dars jarayonlarida intizomiy, motivatsion, kognitiv, nizoli va vaqt bosimi bilan bog'liq pedagogik ssenariylar qo'llanildi. Sun'iy intellekt algoritmlari (mashinali o'rganish, NLP va Computer Vision) orqali talabalar faoliyati uzluksiz tahlil qilindi, baholandi va individual tavsiyalar berildi. Shu bilan birga, mashg'ulotlar davomida tajriba guruhi va nazorat guruhi o'rtasidagi farqlar muntazam kuzatilib, qayd etildi.

PVL dasturining amaliy imkoniyatlari, jumladan, virtual talabalar bilan muloqot qilish, ssenariyga asoslangan dars jarayonlarini boshqarish, AI orqali qayta aloqa olish, o'z-o'zini baholash va refleksiya qilish mexanizmlaridan foydalanish holati tahlil etildi va umumlashtiriladi (1-jadval)


Quyida qayd etilgan barcha oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijalari statistik tahlil asosida umumlashtirilib, ularning samaradorligi aniq ko'rsatkichlar orqali tasdiqlandi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, tadqiqot davomida qayd etilgan raqamlar tasodifiy emas, balki ilmiy asoslangan natijalarga tayangan holda shakllangan. Shuningdek, chiqarilgan xulosalar nazariy taxminlarga emas, balki amaliy tajriba jarayonida olingan real ko'rsatkichlarga asoslandi. Natijalar esa kutilgan samaradorlik darajasidan ham yuqori ekanligi bilan ahamiyat kasb etdi.

## Olib borilgan tajriba-sinov ishlarining yakuniy natijasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti	2	3	4	5	Jami:	samaradorlik
Tajriba guruhi	0	14	33	18	65	1,127
Nazorat guruhi	1	28	25	7	61	
Qarshi davlat universiteti	2	3	4	5	Jami:	samaradorlik
Tajriba guruhi	0	13	30	16	59	1,11
Nazorat guruhi	1	30	25	7	63	
Guliston davlat universiteti	2	3	4	5	Jami:	samaradorlik
Tajriba guruhi	0	13	33	17	63	1,14
Nazorat guruhi	1	32	24	7	64	

Tajriba-sinov ishlari davomida talabalarda o'quv-bilish faoliyatining samaradorligini aniqlash maqsadida zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarga asoslangan yondashuv qo'llanildi. Jumladan, PVL ta'lim dasturi yordamida ssenariylashtirilgan immersiv dars mashg'ulotlari tashkil etildi. Ushbu mashg'ulotlarda talabalar virtual va interaktiv muhit orqali o'quv jarayoniga faol jalb qilinib, mavzularni amaliy holatlar asosida o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Dars jarayonlari sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida monitoring qilinib, talabalar faoliyati AI orqali baholandi hamda ularning individual o'zlashtirish darajasiga mos tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu esa ta'lim jarayonining shaxsga yo'naltirilgan va adaptiv shaklda tashkil etilishiga xizmat qildi.

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, tajriba-sinov ishlari talabalarning o'quv-bilish faoliyatiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Xususan, Guliston davlat universiteti talabalarining samaradorlik ko'rsatkichi 14 foizga oshgan bo'lsa, Qarshi davlat universitetida ushbu ko'rsatkich 11 foizni tashkil etdi. Shuningdek, Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalarida o'quv faoliyati samaradorligi 12,7 foizga ortgani kuzatildi. Mazkur natijalar immersiv texnologiyalar hamda sun'iy intellekt asosidagi baholash tizimlari ta'lim sifatini oshirishda samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi.



**6-rasm. Talabalarning tajriba-sinov yakunida o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi diagrammasi**

Tajriba-sinov jarayoni shuni ko'rsatdiki, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan o'qitish metodikasi an'anaviy yondashuvlardan faqat farq qilmaydi, balki ustun keladi. An'anaviy o'qitish bilim beradi, taklif etilgan metodika esa bilimni harakatga keltiradi. Natijada o'qitish jarayoni passiv qabul qilishdan faol o'zlashtirish bosqichiga ko'tarildi.

O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar ilgari surilgan farazni taxmin darajasidan chiqarib, uni ilmiy haqiqat maqomiga olib chiqdi. Faraz tekshirildi, sinovdan o'tdi va o'z tasdig'ini topdi.

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qitish samaradorligini baholash mezonining qiymati birlikdan yuqori, bilish darajasini ifodalovchi ko'rsatkich esa musbat qiymatga ega. Mazkur holat tajriba guruhida tashkil etilgan ta'lim jarayonining samaradorligi nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq ekanligini yaqqol namoyon etadi. Demak, tajriba guruhidagi talabalar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada yaxshilangan. Shu asosda aytish mumkinki, olib borilgan tajriba-sinov ishlari belgilangan maqsadga muvofiq holda amalga oshirilgan va kutilgan ijobiy natijalarga erishilgan.

Eng muhim jihati shundaki, ishlab chiqilgan metodik tizim pedagogik tajriba-sinov jarayoniga tatbiq etilgach, talabalarning o'quv-bilish faoliyati sezilarli darajada faollashdi. Raqamlar buni yashirmaydi: barcha oliy ta'lim muassasalari kesimida o'rtacha 12,57% o'sish qayd etildi. Bu raqam - shunchaki foiz emas, balki metodikaning amaliy samaradorligini ifodalovchi ilmiy dalildir.

### UMUMIY XULOSALAR

Pedagogik Virtual Laboratoriya (PVL) dasturi hamda VR va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish metodikasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish jarayonida virtual sinf va virtual talabalar ishtirokidagi simulyatsion ta'lim muhiti muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qilishi aniqlandi. Ushbu muhit pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, muammoli holatlarni tahlil qilish hamda pedagogik qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish uchun keng didaktik imkoniyatlar yaratadi.

2. VR texnologiyalari asosida yaratilgan virtual pedagogik muhit bo'lajak o'qituvchilarning dars jarayonini tashkil etish, talabalarga ta'sir o'tkazish, muloqot olib borish va sinfni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Bunda ta'lim jarayoni subyektlarining hamkorlik faoliyati hamda interaktiv simulyatsiyalar muhim rol o'ynaydi.

3. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida uchraydigan metodik muammolar simulyatsion pedagogik vaziyatlar asosida ishlab chiqilgan mashg'ulotlar tizimi orqali bartaraf etilishi mumkinligi asoslandi. Bu esa pedagogik faoliyatning real sharoitlariga yaqin muhitda amaliy tajriba orttirish imkonini yaratadi.

4. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish modeli Pedagogik Virtual Laboratoriya (PVL) dasturi asosida ishlab chiqildi. Ushbu model ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlarni, differensial o'qitish metodlarini hamda sun'iy intellekt asosidagi tahlil mexanizmlarini qo'llash orqali pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. VR va AI texnologiyalariga asoslangan ta'lim muhitida tashkil etilgan pedagogik mashg'ulotlar bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot, sinfni boshqarish, muammoli vaziyatlarni hal qilish hamda reflektiv tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini yaratishi aniqlandi.

6. O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini virtual muhitda modellashtirish hamda AI asosida tahlil qilish metodikasining samaradorligini tasdiqladi.

7. Tajriba-sinov natijalarining matematik-statistik tahliliga ko'ra, tavsiya etilgan metodika asosida tashkil etilgan o'qitish jarayoni an'anaviy o'qitish metodlariga nisbatan samaraliroq ekanligi aniqlandi hamda talabalar o'quv-bilish faoliyatining samaradorligi taxminan 12,57 % ga oshgani statistik usullar yordamida isbotlandi.

## **TAVSIYALAR**

1. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish jarayonida VR, AR va sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan virtual ta'lim muhitini ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish hamda Pedagogik Virtual Laboratoriya (PVL) imkoniyatlarini pedagogik amaliyot mashg'ulotlari bilan integratsiyalash tavsiya etiladi.

2. Pedagogik tayyorgarlik jarayonida virtual sinf va virtual talabalar asosida

tashkil etilgan simulyatsion mashg'ulotlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot, sinfni boshqarish, muammoli vaziyatlarni hal qilish hamda reflektiv tahlil ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni tizimli ravishda takomillashtirish maqsadga muvofiq.

3. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini aniqlash va baholash jarayonida AI asosidagi elektron diagnostika va tahlil tizimlarini joriy etish, bunda pedagogik faoliyatning kommunikativ, tashkiliy va reflektiv ko'rsatkichlarini kompleks baholash mezonlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ**  
**PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03. ПРИЧИРЧИКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОГО**  
**ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**  
**ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

---

**ИБАДУЛЛАЕВ ДОНИЁР КУВАНДИКОВИЧ**

**Методика совершенствования использования технологий VR и AR в  
подготовке будущих учителей**

**13.00.06 — Теория и методика цифрового образования**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Чирчик 2026**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.2.Phd/Ped10526.

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном университете.

Автореферат диссертации размещён на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (csru.uz/uz ilmiy-kengash) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Хуррамов Анвар Джуманазарович  
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

Официальные оппоненты:

Ахмеджанов Дильмурод Гуломович  
доктор технических наук (DSc), профессор

Абдуллаев Алибек Кодиралиевич  
доктор педагогических наук (DSc), доцент

Ведущая организация:

Ферганский государственный университет

Защита диссертации состоится «09» 05 2026 года в 16<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета № Phd.01/2025.27.12. Ped.04.03. при Чирчикском государственном педагогическом университете. (Адрес: 111720, Ташкентская область, город Чирчик, улица Амира Темура, дом 104. Тел.: (99871) 712-27-55; факс: (99871) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@csru.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Чирчикского государственного педагогического университета (зарегистрирована за № \_\_\_\_\_). Адрес: 111720, город Чирчик, улица Амира Темура, дом 104. Тел.: (99871) 712 27-55; факс: (99871) 712-45-41.

Автореферат диссертации разослан «26» 05 2026 года.

(Протокол регистрационного реестра № 20 от «26» 05 2026 года).



Ф.У. Кодирова

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктора педагогических наук, профессор (DSc)

И. Д. Кодиров

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

Д.О. Химматалиев

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук, профессор (DSc)

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

### **Актуальность и необходимость темы диссертации:**

В условиях ускорения процессов цифровой трансформации в мировых образовательных учреждениях в практику непрерывного образования широко внедряются инновационные подходы, передовые педагогические и современные информационно-коммуникационные технологии. Данные процессы созвучны приоритетным направлениям, обозначенным в Инчхонской декларации, принятой ЮНЕСКО, где повышение качества образования, развитие цифровой образовательной инфраструктуры, совершенствование систем дистанционного и смешанного обучения определены как глобальные цели. Особенно в последние годы возрастает значение использования технологий виртуальной реальности (VR) и дополненной реальности (AR) в системе образования.

В ведущих мировых научно-исследовательских учреждениях проводятся исследования, направленные на индивидуализацию образовательного процесса на основе использования технологий VR и AR, стимулирование самостоятельного обучения студентов, интеграцию учебных дисциплин с практической деятельностью, а также повышение эффективности подготовки педагогических кадров. В данном процессе особое внимание уделяется созданию цифровой среды, внедрению виртуальных лабораторий, визуальному объяснению сложных тем и разработке интерактивных материалов. Кроме того, технологии VR и AR предоставляют студентам возможность приобретения опыта в условиях, приближенных к реальным, что способствует развитию не только теоретических знаний, но и практических навыков. Преподаватели, в свою очередь, получают возможность применять новые педагогические подходы, более эффективно организовывать учебные занятия и использовать креативные методы обучения. В связи с этим совершенствование технологий VR и AR рассматривается как одно из важных и перспективных направлений образовательного процесса.

В нашей стране также реализуются системные реформы, направленные на широкое внедрение цифровых технологий в сферу образования и дальнейшее повышение качества обучения посредством привлечения современных технологий. Определены задачи по «созданию технической инфраструктуры для запуска проектов, основанных на обработке данных и искусственном интеллекте, реализации приоритетных проектов данного направления в социальной сфере и отраслях экономики, повышению знаний и навыков населения в области использования технологий искусственного интеллекта, а также развитию кадрового потенциала». Наряду с этим особое внимание уделяется повышению качества образования посредством современных технологий, таких как VR и AR, стимулированию интереса студентов и молодежи к обучению, развитию их способности к самостоятельному мышлению, укреплению практических навыков, а также широкому внедрению инновационных подходов. В этих процессах расширяются возможности использования интерактивных платформ, систем дистанционного обучения и инструментов, основанных на искусственном интеллекте. В результате образовательный процесс становится более эффективным, удобным и увлекательным, а взаимодействие между

преподавателем и обучающимся выходит на качественно новый уровень.

